TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIVAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIVAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI.....	1686
Mirzaxalikhov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
“IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МИСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
ANOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўгли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўгли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кошанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: HORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ.....	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadriiddin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	
МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ.....	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	



TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
<i>Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li</i>	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
<i>Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich</i>	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
<i>Qodirov Farrux Ergash o'g'li</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
<i>To'rayev Shavkat Shuxratovich</i>	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
<i>Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
<i>Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li</i>	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
<i>Nazarova Gulrux Umarjonovna</i>	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
<i>Otabek Azamatov Quyosh o'g'li</i>	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
<i>Раджабова Гавхархон Умаровна</i>	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
<i>Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich</i>	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
<i>Sh. J. Mamadjanov</i>	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHLARI	2076
<i>Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov</i>	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
<i>Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
<i>Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor</i>	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
<i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna</i>	
OLIV TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
<i>Djabbarova Zilola Saburovna</i>	
MINTAQADA OZIY-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHLARI.....	2104
<i>Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich</i>	
DUNYO MAMLUKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
<i>Rasulov Jamshid Shokir o'g'li</i>	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
<i>K.A. Musakhanov</i>	



ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIYAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI.....	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY Tajribalari.....	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY Tajribalari VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ.....	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIYAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH.....	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI.....	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI.....	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI.....	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI.....	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	
HUDUDIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdugarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	



O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI.....	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
ESTIMATING DEMAND AND SUPPLY FOR COTTON-TEXTILE CLUSTER PRODUCTS	2281
Nasimov Bakhtiyor Vasievich	
MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI REJALASHTIRISH JARAYONINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2288
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR MOLIYAVIY FAOLIYATIDA NATIJA SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	2292
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	
XORAZM VILOYATIDA YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	2297
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONINING JORIY HOLATI TAHLILI	2302
Umarova Malika Baxtiyarovna	
BARQAROR IQTISODIYOTNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING SAMARADORLIGI	2311
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	2315
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
IJARANING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	2318
Djumayeva Guzal Axtamovna	
AGROSANOAT INNOVATSION MARKETING FAOLIYATI YURITISH AMALIYOTINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA USTUVORLIKLARI TAHLILI.....	2324
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
BALIQCILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON IQTISODIY MUHITIDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	2332
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich	



TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2338
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
RAQAMLI TURIZM TIZIMINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	2344
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISHDA KORXONAGA NISBATAN RAQOBAT BOSIMINI BAHOLASHNINING IMITATSION MODEL (OLMALIQ KON METALLURGIYA KOMBINATI AJ KORXONASI MISOLIDA)	2348
Nazarova Sitorabonu Sharofiddinovna	
DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	2357
Ziyayeva Mukhtasar Mansurjanovna	
SANOAT ISHLAB CHIQRISHNING IQLIM O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI	2362
Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna	
FUNDAMENTALS OF FORMING ACCOUNTING POLICIES FOR LEASING COMPANIES BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	2368
Baxadirov Alisher Komilovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH.....	2368
Jahongir Gadayev, Zarif Axrorov	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O'RNI	2372
Kasimova Zilola G'ulomiddin qizi	
СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОВАРНОЙ ПОЛИТИКИ НА ЗАРУБЕЖНЫХ РЫНКАХ	2386
Абдуллаев Азиз Курбанович	
XUSUSIY KAPITALNING OPTIMAL TARKIBINING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI	2391
Qurbonov Xayrilla	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2399
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2404
Voxidov Oybek Roziqovich	
BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRILISHINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	2409
Muqimov Asrorjon Rasulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAROITIDA DDOS HUJUMLARIGA QARSHI SUN'YI INTELLEKT AGENTLARINI QO'LLASH.....	2413
Bekov Sanjar Nigmandjonovich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2418
Begimova Dilshoda Komiljonovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA ESG INTEGRATSIYASI VA YASHIL SUG'URTA MAHSULOTLARINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	2424
Kadirov Raxim Karimovch	
ECONOMIC ASSESSMENT OF MEASURES TO REDUCE THE SHORTAGE OF FREIGHT WAGONS IN RAILWAY TRANSPORT.....	2429
Egamberdieva Khurshidakhon Alisherovna	
TIJORAT BANKLARDA OPERATSION RISKLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	2435
Nishanov Shoazam Baxramovich	
O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI	2440
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	



ПРЕДПОСЫЛКИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	2445
Каракулов Фарход Зайпудинович	
O'ZBEKISTON TURIZM SANOATI MUVAFFAQIYATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI	2451
Esonboyev Bahodir Bakir o'g'li	
ESG TAMOIYLLARI ASOSIDA BIZNES SUBYEKTLARINING MOSLASHUVCHANLIGINI BOSHQARISH KONSEPSIYASI	2456
Joldasov Damir Rauajovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2461
Maxmudova Dilafuz Raxmonovna	
DAVLAT BUDJETINING SOLIQLI DAROMADLARI TAHLILI	2466
Shirinov Sabir Erkinovich	
"YASHIL" BANKLARDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBASI	2472
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
O'ZBEKISTONDA G'AZNACHILIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY MEKANIZMLARI	2478
Kasimova Gulyar Axmatovna, Mallaev Zokir Safarboevich	
CHAKANA SAVDODA INNOVATSION MARKETING SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI TIZIMINI EKONOMETRIK USULLAR YORDAMIDA TADQIQ ETISH	2484
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHGA E'TIBORNI QARATISH	2492
Begamov Safar Xolmurzayevich	



IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHGA E'TIBORNI QARATISH

Begamov Safar Xolmurzayevich

Abu Rayhon Beruniy universiteti bosh hisobchisi

safar.begamov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llarini aniqlashga bag'ishlangan. Global iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari investitsiyalarni jalb etish jarayonida qator institutsional va moliyaviy muammolarga duch kelmoqda. Tadqiqot doirasida investitsion jozibadorlikni oshirishning asosiy omillari sifatida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, ochiqlik va shaffoflik darajasini oshirish, yuqori malakali boshqaruv kadrlarini jalb etish hamda kompaniya strategiyasini uzoq muddatli barqaror rivojlanishga yo'naltirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, investitsion jozibadorlik, korporativ boshqaruv, sarmoya jalb qilish, moliyaviy ko'rsatkichlar, investitsiya muhiti, ochiqlik va shaffoflik, davlat qonunchiligi, aksiyadorlar manfaatlari, xalqaro tajriba, barqaror rivojlanish, boshqaruv strategiyasi.

Abstract. This study is devoted to identifying ways to enhance the investment attractiveness of joint-stock companies. In the context of the global economy, joint-stock companies face a number of institutional and financial challenges in the process of attracting investments. The research analyzes key factors contributing to increased investment attractiveness, including the improvement of corporate governance systems, strengthening financial stability, enhancing transparency and openness, attracting highly qualified management personnel, and aligning corporate strategies with long-term sustainable development goals.

Key words: joint-stock companies, investment attractiveness, corporate governance, investment attraction, financial indicators, investment environment, transparency and openness, state legislation, shareholders' interests, international experience, sustainable development, management strategy.

Аннотация. Настоящее исследование посвящено выявлению путей повышения инвестиционной привлекательности акционерных обществ. В условиях глобальной экономики акционерные общества в процессе привлечения инвестиций сталкиваются с рядом институциональных и финансовых проблем. В рамках исследования анализируются ключевые факторы повышения инвестиционной привлекательности, включая совершенствование системы корпоративного управления, укрепление финансовой устойчивости, повышение уровня открытости и прозрачности, привлечение высококвалифицированных управленческих кадров, а также ориентацию стратегии компании на долгосрочное устойчивое развитие.

Ключевые слова: акционерные общества, инвестиционная привлекательность, корпоративное управление, привлечение инвестиций, финансовые показатели, инвестиционная среда, открытость и прозрачность, государственное законодательство, интересы акционеров, международный опыт, устойчивое развитие, управленческая стратегия.

KIRISH

Bugungi kundagi dunyoni investitsiyalarsiz to'liq tushunib yetish qiyin. Global miqyosda bozor muhiti hukmron bo'lgan hozirgi davrda ulushdorlar, aksiyadorlar, menejerlar, innovatsiya, sun'iy intellekt kabi tushunchalar insoniyat hayotiga allaqachon ajralmas tarzda kirib bo'lgan. Ayniqsa, tadbirkorlik hamda biznes muhitida investitsiya har qanday faoliyatning asosiy omili hisoblanadi. Amerikalik milliarder Warren Buffett shunday degan edi: "Biror narsa uzoq muddatda qiymatini oshiradigan bo'lsa, u qimmat emas". Buffett



investitsiyalarni uzoq muddatli o'sishga asoslangan holda tanlash zarurligini ta'kidlaydi. Xuddi shunga o'xshash minglab, balki millionlab qarashlar mavjud bo'lib, ular o'z tajribalaridan hamda siyosiy va iqtisodiy muhitdan kelib chiqib shakllangan.

Dunyoda investitsiya va biznes muhiti qay darajada rivojlanganligi, investitsiyalar ko'proq qaysi mintaqalarga yo'naltirilayotganiga e'tibor qaratsa, CEOWORLD Magazine tomonidan e'lon qilinadigan mamlakatlararo iqtisodiy reytinglar va raqobatbardoshlik indeksleri muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nashrda 2024-yilda investitsiya kiritish va biznes yuritish uchun eng qulay davlatlar reytingi keltirilgan bo'lib, unda jami 199 ta mamlakat qamrab olingan. Reyting natijalariga ko'ra, 2024-yilda investitsiya kiritish va biznes qilish uchun dunyoning eng yaxshi mamlakati sifatida Singapur e'tirof etilgan. Buyuk Britaniya ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, undan keyingi o'rinlarda Tayvan (3-o'rin), Hindiston (4-o'rin) va Indoneziya (5-o'rin) joylashgan. Mamlakatimiz esa 199 ta davlat orasida 106-o'rinda qayd etilgan. Ushbu reytingda Singapur eng jozibador sarmoya kiritish manzili sifatida yetakchi o'rinda turib, xalqaro biznes va investorlar uchun o'zining barqaror pozitsiyasini mustahkamlab kelmoqda. Mazkur ma'lumotlarning o'ziyiq mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada isloh qilish, mavjud muammolarga yechim topish hamda ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizdagi iqtisodiy munosabatlar tizimida yuz berayotgan sezilarli o'zgarishlar hududlarda tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy shakllarini tubdan qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Bu holat, o'z navbatida, boshqaruvning barcha funksional jihatlarini takomillashtirishni hamda, eng avvalo, tashkilotlar xo'jalik faoliyatining muhim ko'rsatkichlarini baholash tizimini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda respublika hududlarining investitsion salohiyatini oshirish hamda investitsiya jarayonlarini samarali tashkil etishda hududlarning geografik joylashuvi, tabiiy resurslarning mavjudligi va zahiralari, mehnat resurslarining soni, yoshi va malakasi, shuningdek, hududlarda uzoq yillar davomida shakllangan ixtisoslashuv darajasi va infratuzilma holati kabi omillarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli¹ Qonuni hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, investitsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli² Farmonida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yil davomida 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish vazifasi belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, respublikada jalb qilinayotgan investitsiyalarning asosiy qismini to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tashkil etmoqda. Dastlabki bosqichlarda investitsiyalar asosan davlat kafolati ostida jalb etilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda aksiyadorlik jamiyatlari o'zlari mustaqil ravishda qimmatli qog'ozlar chiqarish, jumladan, davlat kafolatsiz evroobligatsiyalar joylashtirish orqali investitsiyalarni jalb qilmoqda. Ushbu jarayonda aksiyadorlik jamiyatlari o'z investitsion jozibadorligini xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan ijobiy baholar orqali namoyon etishga muvaffaq bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shu o'rinda ayrim xorijiy olimlarning investitsiya va uning jozibadorligi haqida bayon qilgan fikrlariga ham to'xtalib o'tiladi. Moliyaviy iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritgan amerikalik iqtisodchi Michael C. Jensen o'zining "Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure" (1976-yil) nomli maqolasida korporativ boshqaruv va agentlik xarajatlari nazariyasining asoslarini yoritib bergan. Ushbu tadqiqotda muallif firma faoliyatidagi agentlik muammolari va agentlik xarajatlarini tahlil qilgan. Xususan, agentlik nazariyasi, agentlik xarajatlari, firma tuzilmasi va mulkdorlar nazorati, moliyaviy tuzilma hamda qarz ulushining ta'siri kabi yo'nalishlar chuqur o'rganilgan. Mazkur ilmiy ish bugungi kunda ham korporativ boshqaruv, agentlik nazariyasi va korporativ moliya sohalarida asosiy nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi va samaradorligini oshirishda qanday boshqaruv tizimlari hamda rag'batlantirish mexanizmlari zarurligini tushunishga xizmat qiladi.

2025-yilgacha mo'ljallangan Milliy investitsiya dasturi O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy islohotlariga muvofiq amalga oshirilayotgan bo'lib, umumiy qiymati 55,4 milliard AQSh dollarini tashkil etuvchi qariyb 800 ta loyihani qamrab oladi. Mazkur dastur infratuzilma va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish orqali investitsiyalarni jalb

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4664142>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



etishga qaratilgan bo'lib, unda davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantirish, investorlar uchun kapitalni erkin olib chiqish hamda millilashtirishdan himoya qilish kabi huquqiy kafolatlar belgilab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish masalasini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar asosan rasmiy statistika manbalari, davlat va xalqaro tashkilotlar hisobotlari, qimmatli qog'ozlar bozoriga oid ochiq ma'lumotlar, shuningdek, soha bo'yicha e'lon qilingan ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida yig'ildi. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlari, investitsiya hajmlari va korporativ boshqaruv holatini baholashda ikkilamchi ma'lumotlardan keng foydalanildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida qiyosiy tahlil, statistik guruhlash va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, milliy va xorijiy tajribalarni solishtirish orqali investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ularning samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari umumlashtirilib, mantiqiy xulosalar chiqarish asosida ilmiy tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu o'rinda mamlakatimizdagi ayrim statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. O'zbekistonda 2024-yil oktabr oyining boshida 680 ta aksiyadorlik jamiyati faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023-yilning shu davriga nisbatan 10 foizga ko'pni tashkil etgan. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi ma'lumotlariga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari sonining bunday o'sishi so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlarining 334 tasi xorijiy ulushga ega bo'lib, ularning asosiy qismi, ya'ni 99,2 foizi xorijiy yuridik shaxslarga, qolgan 0,8 foizi esa jismoniy shaxslarga tegishli hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari mamlakat iqtisodiyoti uchun bir qator muhim afzalliklarga ega. Ulardan eng muhimlaridan biri moliya va kapitalni jalb qilish imkoniyatidir. Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalar chiqarish orqali katta miqdordagi mablag'larni safarbar etadi, bu esa yirik korxonalar va investitsion loyihalarni amalga oshirish imkonini yaratadi hamda davlat iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi. Jalb etilgan moliyaviy resurslar sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati ko'plab ish o'rinlari yaratilishiga olib kelib, mamlakatda bandlik darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari yangi texnologiyalarni joriy etish va xodimlar malakasini oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, ushbu jamiyatlar tomonidan to'lanadigan soliqlar davlat budjetini to'ldirishda, davlat xizmatlari va infratuzilmani rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, xorijiy investorlarning aksiyadorlik jamiyatlaridagi ishtiroki mamlakatga qo'shimcha xorijiy sarmoyalar jalb etilishiga xizmat qiladi. Bu holat iqtisodiyotning global bozorga integratsiyalashuvini tezlashtirib, xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishiga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda so'nggi yil davomida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati natijasida sezilarli iqtisodiy foyda olingan. Jumladan, qimmatli qog'ozlar chiqarilish hajmi 22,9 trillion so'mga oshgan. Shuningdek, davlat aksiyadorlik jamiyatlari orqali soliqlar va dividendlardan muayyan daromadlar shakllangan. Masalan, yirik korxonalaridan biri bo'lgan "O'zmetkombinat" oddiy aksiyalar bo'yicha har bir aksiya uchun 683,35 so'm miqdorida dividend to'lagan. Bunday to'lovlar davlat budjetiga sezilarli darajada daromad keltirgan. Bundan tashqari, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining ustav fondi va aktivlari ham davlat uchun muhim qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi. Ushbu jamiyatlarning umumiy aktivlari hajmining yil davomida oshib borishi natijasida davlatning aksiyadorlik jamiyatlari orqali oladigan iqtisodiy foydasi yanada ortib borgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish zamonaviy biznes va iqtisodiyotning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari investorlarga samarali daromad olish imkoniyatini taqdim etishi, shuningdek, kompaniya faoliyatining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashi lozim. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy omillar hamda ularni takomillashtirish yo'llari tahlil qilindi. Birinchidan, korporativ boshqaruvning samaradorligi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruvchilar va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish, agentlik xarajatlarini kamaytirish hamda boshqaruv jarayonini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida boshqaruv tizimining shaffofligini oshirish, qarorlar qabul qilish jarayonlarini ochiq va adolatli amalga oshirish zarur.



Ikkinchidan, moliyaviy ko'rsatkichlarning mustahkamligi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshiradi. Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, qarz va kapital tuzilmasini muvofiqlashtirish investorlar uchun jozibador va xavfsiz sarmoya imkoniyatlarini yaratadi. Moliyaviy shaffoflikni oshirish va ishonchli moliyaviy hisobotlarni taqdim etish sarmoyadorlar ishonchini kuchaytiradi hamda investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, oqilona investitsiya strategiyalari va uzoq muddatli rivojlanish rejaları aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshligini oshiradi. Kompaniyaning kelgusidagi o'sish istiqbollarini aniq belgilash, yangi bozorlarni egallash hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish investorlar uchun jozibadorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyati va ekologik barqarorlik masalalariga e'tibor qaralishi ham aksiyadorlik jamiyatining umumiy investitsion jozibadorligini oshiradi.

To'rtinchidan, kadrlar siyosati ham muhim ahamiyatga ega. Yuqori malakaga va yetarli tajribaga ega bo'lgan boshqaruvchilar hamda xodimlar investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Kadrlarni rivojlantirish, samarali motivatsiya tizimlarini joriy etish va xodimlar faoliyatida yuqori samaradorlikni ta'minlash kompaniya muvaffaqiyatini yanada oshiradi.

Yuqorida qayd etilgan omillar asosida aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun kuchli korporativ boshqaruv tizimini shakllantirish, shaffof moliyaviy hisobotlarni ta'minlash, innovatsion investitsiya strategiyalarini joriy etish hamda malakali kadrlar siyosatini takomillashtirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar kompaniyaning investorlarga bo'lgan jozibadorligini oshirib, sarmoyadorlar uchun xavfsiz va samarali sharoitlar yaratadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qonunchilik va qulay iqtisodiy muhitni shakllantirish aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy va xalqaro investorlar ishonchini mustahkamlash, barqaror va samarali iqtisodiy tizimni ta'minlash muhim vazifalardan biridir.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish nafaqat kompaniyaning moliyaviy holatiga, balki uning uzoq muddatli barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyatiga ham bevosita bog'liqdir. Yaratilgan qulay investitsion muhit mamlakat iqtisodiy o'sishiga, yangi ish o'rinlari yaratishga va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Taklif sifatida aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan quyidagi to'rt yo'nalishni ko'rsatish mumkin: korporativ boshqaruvni mustahkamlash, ya'ni boshqaruv va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, shaffof qarorlar qabul qilish mexanizmlarini joriy etish hamda agentlik xarajatlarini kamaytirish; moliyaviy shaffoflikni oshirish va risklarni boshqarish orqali sarmoyadorlar ishonchini mustahkamlash, xalqaro reyting agentliklarining ijobiy baholariga erishish va ishonchli moliyaviy hisobotlarni taqdim etish; innovatsion hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini joriy etish orqali bozorlarni kengaytirish va kompaniyaning o'sish istiqbollarini namoyon etish; yuqori malakali kadrlarni jalb qilish, ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlash va samarali motivatsiya tizimlarini ishlab chiqish orqali kompaniyaning barqaror o'sishini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jensen, M. C. (1976). Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs, and Ownership Structure. *Journal of Financial Economics*, 3(4), 305–360. [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(76\)90026-X](https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X)
2. Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1997). A Survey of Corporate Governance. *The Journal of Finance*, 52(2), 737–783. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1997.tb04820.x>
3. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1998). Law and Finance. *Journal of Political Economy*, 106(6), 1113–1155. <https://doi.org/10.1086/250042>
4. World Bank. (2020). *World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains*. World Bank Group.
5. Hoskisson, R. E., et al. (2000). The Effects of Corporate Governance and Restructuring on Firm Performance in Emerging Markets. *Strategic Management Journal*, 21(5), 449–461.
6. Fama, E. F., & Jensen, M. C. (1983). Separation of Ownership and Control. *Journal of Law and Economics*, 26(2), 301–325.
7. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi Qonun (2019-yil).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi (2022–2026-yillar) to'g'risidagi Farmon (2022-yil).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>